

SHARQ ADABIYOTSHUNOSLIGI, ADABIY ALOQALAR VA MILLATLARARO



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653382>

Farida Hamroyeva

Samarqand davlat chet tillar instituti

Yaqin sharq tillari kafedrasini o‘qituvchisi (O‘zbekiston)

Ma’ruf Hikmatillayev

Samarqand davlat chet tillar instituti

Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi talabasi (O‘zbekiston)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sharq adabiyoti xususan o‘zbek, arab, xitoy, koreys va yapon xalqlarining ma’naviy boyliklari, adabiyoti tarixi, ijod namunalari yoritilib berilgan. Shu bilan bir qatorda har bir sharq adabiyotining o‘zbek adabiyoti bilan bog‘liqligi, o‘xshashligi, farqlari va o‘ziga xos jihatlariga ham duch kelamiz. Qadimgi sharq adabiyotining hozirgi zamondagi talqini qanday? Hozirgi o‘zbek, arab, xitoy, koreys va yapon adabiyotida qanday o‘zgarishlar yuz berayapti va u o‘z ta’sirini qanchalik ko‘rsatayapti? kabi savollarga javob olishingiz mumkin. Adabiyotning har bir jabhada qanchalik muhimligini ushbu maqolada ko‘rishimiz mumkin

Kalit so‘zlar: Arab va fors adabiyoti, Konfutsiychilik, sotsialistik realism, sof adabiyot, simfonik uyg‘unlik, so‘fiylik darslari, mumtoz adabiyot.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются духовные богатства восточной литературы, особенно узбекского, арабского, китайского, корейского и японского народов, история литературы, примеры творчества. В то же время мы сталкиваемся со сходствами, различиями и особенностями каждой восточной литературы с узбекской литературой. Какова современная интерпретация древневосточной литературы? Какие изменения происходят в современной узбекской, арабской, китайской, корейской и японской литературе и в какой степени они влияют? Вы можете получить ответы на такие вопросы, как. В этой статье мы увидим, насколько важна литература во всех аспектах.

Ключевые слова: арабская и персидская литература, конфуцианство, социалистический реализм, чистая литература, симфоническая гармония, суфийские уроки, классическая литература.

ABSTRACT

This article covers the spiritual riches of the Eastern literature, especially the Uzbek, Arabic, Chinese, Korean and Japanese peoples, the history of literature, examples of creativity. At the same time, we encounter similarities, differences and peculiarities of each oriental literature with Uzbek literature. What is the modern interpretation of ancient oriental literature? What changes are taking place in modern Uzbek, Arabic, Chinese, Korean, and Japanese literature, and to what extent is it influential? You can get answers to questions such as. In this article, we will see how important literature is in every aspect

Keywords: Arabic and Persian literature, Confucianism, socialist realism, pure literature, symphonic harmony, Sufi lessons, classical literature.

KIRISH

Sharqning yuragi...

Adabiyot insonlarni tarbiyalaydigan, ruhiyatini oziqlantiradigan, ta’bir joiz bo’lsa "ko‘zlarini ochadigan" beqiyos kuch, inson aqliy va ruhiy omiling mahsulidir. Buyuk ma’rifatparvar yozuvchi Abdulla Qahhor aytganidek, “Adabiyot atomdan kuchli...” Agar uning kuchi “o‘tin yorish”ga sarf qilinmasa, adabiyot pokiza va muqaddas ish bo‘lib qolsa, hech shak-shubha yo‘qki, badiiy so‘zning kuch-quvvati ortib boradi.

So‘z insonni tarbiyalaydi. Uni fikr mushohadasiga yo‘naltiradi. Jamiyatda inson ruhining muhandislari butun millat, kerak bo‘lsa dunyo xalqlarining yuragidagi tug‘yonlarini uyg‘oya oladi. Zero, badiiy so‘z qudrati katta. Bunga bee’tibor davlat taqdiri tanazzulga yuz tutadi. O‘zbek adabiyoti esa dunyo adabiyoti vallahatlaridan desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Odatda, Sharq adabiyoti deyilganda, ko‘z oldimizda Navoiy, Lutfiy, Xorazmiy, Bobur, Jomiy kabi siymolar gavdalanadi. Bu bejiz emas. Darhaqiqat ular buyuk uyg‘onish davrida nasr va nazmda samarali va sermahsul ijod qilishgan. Biroq, Sharq Movarounnahr yoki Xuroson yoxud Fors olami bilan cheklanib qolmaydi. Sharq adabiyotiga koreys, xitoy, turk, arab, yapon, hind kabi millatlarning ma’naviy boyliklari ham kiradi.

Ushbu xalqlar adabiyoti hamisha o‘zining g‘oyaviy klassik ahamiyati bilan ajralib turadi. Qadimgi sharq adabiyoti axloqiy-didaktik ruhi bilan sug‘orilgan

asarlarni jamlagan bo‘lsa, g‘arbda hayotga muhabbat, insonlarni sevish, umrdan zavq olish kabi g‘oyalar ilgari suriladi. Qiyosiy olib qaraganda, Osiyoning axloqini tarbiyalagan Navoiy, Lutfiy, Bobur, Konfutsiy kabi ijodkorlar Sharq olamiga nasr va nazmning bir necha ming yillik tamal toshini qo‘yib ketdi. Ularning davomi sifatida bugun ham jamiyatga xos bo‘lgan qarashlarni, muammolarni olib chiqadigan ijodkorlar tug‘ilmoqda. Kitobxonga o‘z ruhiyatini singdirayotgan, axloqan tuzatish va tarbiyalashga hissa qo‘shayotgan, millatning yaqqol fikrini ochiqalayotgan qalam sohiblari qatlami o‘z tasavvuri orqali davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari adabiyotning bir necha yo‘llarida ham Osiyo davlatlari odimlamoqda. Misol uchun buyuk yapon muallifi Yasunari Kavabata 1968-yilda adabiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA NATIJALAR

Sharq mamlakatlari adabiyoti xususida ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirilyapti. Xususan forsiy, o‘zbek va arab tillardagi adabiy manabalardan ham keng foydalanilgan. Navoiyning Xamsasi tarkibiga kiruvchi “Hayrat-ulm Abror” asarida kurgina ma‘lumotlardan foydalanish mumkin. Bundan tashqari Konfutsiy hikmatlarining yoritilib berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston va arab adabiyotining o‘ziga xosligi, yangi zamon arab adabiyoti.

O‘rta Osiyo adabiyoti, uning istiqboli va taraqqiyotiga Yaqin va Uzoq Osiyo so‘z san‘ati bevosita o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Islom dini Movarounnahrda kirib kelgach, ko‘plab sohalar singari badiiy so‘z qudratida ham o‘zini namoyon qila boshladi. Aruz vazni va uning keng imkoniyatlari xalq lirikasiga singib, ijodkor bilan simfonik uyg‘unlikni hosil qildi. Didaktik ruhdagi ta‘lim asarlarga singdirildi. Ushbu davrda yaratilgan asarlar xalq ma‘naviyatining ko‘zguasi bo‘lib xizmat qildi. Arab adabiyotiga xos uslublarga yaqinlashish avvaldan mavjud bo‘lgan qarashlarni yanada mukammallashtirdi. Ilohiylikka urg‘u berish orqali xalq shuurida tasavvuf va so‘fiylik darslari ildiz ota boshladi. Ushbu davrda adabiyotga oddiy so‘z san‘ati emas, balki millatni tarbiya etadigan vosita sifatida e’tirof etishdi. Qadimgi arab adabiyotining uslubiy taraqqiyoti shu jihati bilan Markaziy Osiyo madaniyati va ma‘naviyatiga bebaho xazina bo‘lib qo‘shildi.

Biroq, qadimgi va o‘rta asrlarda gullab-yashnagan arab adabiyoti yangi davr bo‘lag‘asida qoloq, susaygan taraqqiyot bosqichini boshdan kechirib, ilgarilab ketgan Yevropa adabiyotining ketidan quvishga majbur bo‘ldi. O‘rta asrlarda vujudga kelgan madaniy, adabiy umumiylikning parchalanishi va milliy adabiyotlarning shakllantirish jarayoni arab Sharqida, bir tomondan, qudratli,

barqaror o‘rta asr madaniy an‘analarining mavjudligi, boshqa tomondan esa, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning tezlashuvi va jahon madaniyati bilan bo‘lgan aloqalarning kengayishi singari omillar ta‘siri ostida sodir bo‘ldi. Bugungi arab adabiyoti bir mamlakat emas, balki Misr, Suriya, Iroq, Tunis, Marokash, Saudiya Arabistoni kabi xalqlarning ma‘naviy boyliklarini o‘z ichiga oladi. Bu degani birgina arab tili orqali ushbu davlatlar hayoti va madaniyatini anglash mumkin. Yangi arab adabiyotining o‘ziga xos ahamiyatini to‘g‘ri baholab, muntazam o‘rganish, uning milliy merosini to‘g‘ri tatbiq etish, boshqa Sharq mamlakatlaridagi adabiy jarayonlarni o‘rganishda poydevor vazifasini o‘taydi. Zeroki u butun Osiyoga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan.

O‘zbekiston va Xitoy adabiyoti o‘ziga xosligi, yangi zamon Xitoy adabiyoti.

Xitoy adabiyoti Ibroniya va hind tillari bilan bir qatorda tug‘ilishidan buyon uzluksiz davom etayotgan eng qadimiy adabiy an‘ana va jarayonlardan biridir. Agar Xitoy sivilizatsiyaning dastlabki elementlarini rivojlantirgan joylardan biri deb hisoblasak, bu qarash boshqacha bo‘lishi mumkin ham emas. Bevosita Xitoy adabiyoti deganimizda ko‘z oldimizda eng birinchi Konfutsiy gavdalanadi. Konfutsiy (xitoycha 孔子, mil. avv. 551-479 yil) — Xitoy faylasufi, konfutsiychilik asoschisi va siyosiy arbob bo‘lgan. Uning saboqlari va faylasufligi Xitoy, Koreya, Yaponiya va Vetnam xalqlarining o‘y-fikri va hayotiga chuqur ta‘sir ko‘rsatgan.(Wikipedia) Konfutsiy hikmatlari Sharq adabiyotining pand-nasihat yo‘nalishida yozilgan yirik ma‘naviy merosdir. Ushbu jihati bilan Xitoyning qadimgi adabiyoti Movarounnahr va Xurosonda mavjud bo‘lgan adabiy qarashlarga o‘xshaydi. Misol uchun buyuk ma‘rifatparvar shoir Alisher Navoiy ham o‘z ijodini, eng avvalo, insonni komil bo‘lishiga bag‘ishlagan, shuningdek asarlariga didaktik ahamiyat va e‘tibor qaratgan. Konfutsiy hikmatlarini Alisher Navoiyning birgina "Xamsa" asari tarkibiga kiruvchi "Hayrat ul-abror"ga qiyoslashimiz mumkin. Konfutsiyning "Jarohat uchun adolatni, ezgulik uchun faqatgina ezgulikni qalqon biling"(Sevara Alijonova tarjimasini) hikmati "Hayrat ul-abror"ning uchinchi maqolati-Salotin bobiga to‘g‘ri keladi. Yoxud Xitoyga bo‘lgan munosabatni Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" asarida Farhodning tug‘ilishida ifoda etadi, yani uning mamlakatini Chin deb ataydi. Ushbu jihatlar har ikkala millatning bir-biriga azaldan yaqinligiga dalolat beradi. Yangi zamon Xitoy adabiyoti bir necha xususiyatlari bilan bugun farq qiladi. 20-asr davomida xitoy adabiyoti zamonaviylikka qo‘shila boshladi, ammo bu jarayon 1949 yildagi inqilob bilan to‘xtatildi. 70-yillarning oxiriga qadar adabiyot "sotsialistik realizm" bilan ajralib turardi va eng zamonaviy tendentsiyalarga ega bo‘lmagan edi. Bu holat so‘nggi o‘n yilliklarda o‘zgarib, Xitoy adabiyoti Osiyo ichida va tashqarisida katta erkinlik

bilan targ'ib qilinmoqda, ammo baribir rejim nazorati ostida va potentsial senzurasida ostida qolmoqda.

O‘zbekiston va Yapon adabiyoti o‘ziga xosligi, yangi zamon yapon adabiyoti.

Yapon adabiyoti tez o‘zgarishi va rivojlanishi bilan ajralib turadi. Xitoy Koreya adabiyotiga ta’sir etgani kabi Yaponiya san’atiga ham ta’sir etgan. Ularda ajoyib bir gap bor: "Xitoycha hikmat- yaponcha qalb". Bu jumla orqali ham Chin mamlakatining ushbu yerlardagi nufuzini anglashimiz mumkin. Yapon adabiyoti bir necha bosqichlarga bo‘linadi. Misol uchun klassik bosqich sifatida Yaponiya adabiyoti alohida e’tiborni o‘ziga tortadi. Bu VIII dan XII asrlargacha davom etgan. Bu davrda uchun xos bo‘lgan bir qator jihatlar mavjud. Birinchisi yuqorida ta’kidlaganimizdek Xitoy bilan bog‘liqlik bo‘lsa, o‘sha davrda Yaponiya aholisi eng savodsiz edi. Bu yapon adabiyoti zodagonlarga va oliy sud doiralari o‘rtasida taqsimlanishiga olib keldi. Shuning uchun ehtimol, bu davrning asosiy xususiyati zodagon tabaqalarga tortib ketadi. O‘sha davr asarlari ayollar tomonidan yozilgan edi. Bu mumtoz yapon adabiyotida oila va boshqa odob-axloq me’yorlarining hukmron bo‘lishiga olib kelgan. Xuddi shu jihat bilan o‘zbek adabiyoti yapon adabiyotiga o‘xshaydi. Bugungi kunda kunchiqar mamlakat adabiyoti uzoq sharq adabiy maydonida o‘ziga xos o‘ringa ega. Ayniqsa, yapon she’riyatigagina xos bo‘lgan hayaku janri butun dunyoga mashhur va bugun ushbu janr boshqa millat ijodiyotiga ham asta-sekin kirib bormoqda. Xususan, o‘zbek she’riyatiga ham. Bu esa ikki mamlakat o‘rtasidagi adabiy almashininuv bo‘lmoqda.

O‘zbekiston va Koreys adabiyoti o‘ziga xosligi, yangi zamon koreys adabiyoti.

Koreya yarim oroli iqlimi, an’analari va qarashlari orqali boshqalardan farqlanib turadi. Birgina adabiyot sohasida ushbu mamlakatning o‘z yo‘nalishi mavjud. Ushbu millat fantastik ruhdagi qarashlarini o‘z asarlariga singdirgan. Koreyada folklor san’ati alohida rivojlangan. Koreys fantastikasining ma’lum bo‘lgan birinchi mumtoz asari Geumo Sinxva tomonidan Kim Si-seupdir. (김시습). U xitoy tilida yozilgan.

XVII asrdan boshlab badiiy adabiyot tobora ommalashib bormoqda va kitoblarni ijaraga berish sxemalari orqali osonroq sotib olinmoqda. Shuningdek, asosiy fantastika Janubiy Koreyada "sof adabiyot" deb ham nomlanadi. Ko’pgina mualliflar tomonidan tarjima qilingan Koreya adabiyoti ushbu toifaga kiradi. Terminologiya tez-tez tanqid qilinadi va Janubiy Koreya adabiyotida doimiy muhokama mavzusi hisoblanadi. (Entsiklopediya site:ewikiuz.top)

Shuningdek, Koreya folklor merosi o‘zbek dostonchiligiga qiyoslanishimiz mumkin. Xususan, Janubiy koreyalik olimi O In Kyong “Alpomish” va “Jumong”

dostonlari materiallari asosida o‘zbek va koreys qahramonlik eposlari qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. (manba:“12news.uz”)

Xususan, ikki doston quyidagi xususiyatlari bilan bir-biriga o‘xshaydi. Alpomish va Jumong juda ko‘p noyob qobiliyatlarga ega. Masalan, ikki qahramon ham kamondan bexato o‘q uza olishi bilan mashhur. Alpomish o‘zining mardligi va jasorati tufayli Barchinni qutqarib, el-yurti, yori va xalqining oriyatini, manfaatini himoya qiladi. Jumong ham barcha qiyinchiliklarni yengib, o‘zi orzu qilgan saltanatni bunyod etadi. Jumong obrazida ham ko‘pgina ijobiy xususiyatlar mavjud. Ularning aksari ilohiylik vositasida aks ettirilgan. Alpomishning fazilatlari esa tabiiy va ishonarli. Shuning uchun bugungacha uning sifatleri o‘zbek o‘g‘lonlariga ibrat bo‘lib keladi. Birgina misol: Alpomish Qalmoq eli zindonda edi. Do‘sti Qorajon daragini topib keladi va chohga arqon tashlaydi. Chirmoviqqa osilib chiqayotgan alp negadir yarim yo‘lda arqonni kesib, zindonga qaytadi. Alpning ori keladi, ertaga yuzimga solmasin deydi. Mana sizga haqiqiy yigitning or-nomusi. Qadimgi turkiylar an‘anasiga ko‘ra, kishining jamiyatda tutgan mavqeyi va ko‘rsatgan jasoratlariga qarab ism ham o‘zgartirilgan. Har ikki dostonda ham qahramonlarga ism qo‘yish jarayoni alohida ahamiyatga ega. Ular qaysidir jasorati tufayli ikkinchi bir ulug‘ nomga sazovor bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jamiyatda inson kamolotining shakllanishi badiiy so‘z va uning qudratiga bevosita bog‘liq. Bir mamlakat adabiyoti ikkinchi mamlakat adabiyotiga ta’sir etmasdan qolmaydi. Sharqning o‘ziga xosligi ham shundadir. Millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ham adabiyot ta’minlaydi desam adashmagan bo‘laman. Sharq adabiyotshunosligini o‘rganish inson bo‘lish demakdir. Zero bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan buyuk xazina hamisha ruhiyatni oziqlantiradi. Yana e’tiborli jihati Sharq adabiyoti bir-biriga chambarchas bog‘liq, birini birisiz tasavvur qila olmaymiz. Har biri o‘zgasiga ta’sir o‘tkazmasdan qolmaydi. Ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Sharq adabiyotshunosligining ushbu uyg‘unligi xalqlarning ma’naviy qiyofasi birligidan dalolat beradi, uni o‘rganish orqali esa hayot mohiyatini anglash mumkin. Tarjima asarlarning ko‘payishi, ular bilan tanishishdagi eng oson yo‘ldir. Shuning uchun ham bugun Sharq tillarini o‘rganish va o‘rgatish davlat ahamiyatiga molik masaladir. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori nafaqat zamon ehtiyoji, balki ayni damda ruhiyatning ehtiyojidir. Zeroki, qaysi mamlakat insonlarini ko‘nglini

topmoqchi bo‘lsak, biz uning adabiyotiga, san’atiga va so‘z sehriga suyanishimiz zarur. Gyote aytganidek, "Sharqqa hijrat vojib erur".

REFERENCES

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz - kelajak yo‘q. - T., 1997.
2. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. T., 1980.
3. Hozirgi o‘zbek adabiyotining milliy o‘ziga xosligi. -Toshkent: Fan, 1984. – 200b.
4. N.M.Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. – Toshkent: O‘qituvchi,1976.
5. Li, Piter H. (2003). Koreys adabiyoti tarixi, Kembrij universiteti matbuoti
6. Malarkey, J. M. va Bushrui. S. Arab adabiyotining qisqacha, ajoyib tarixi.. (2015, 11 dekabr).
7. Lun Yuy “Suhbat va mulohazalar”. – Toshkent ., 2014
8. J.Ziyomuxamedov “Xitoy adabiyoti tarixi janrlar tipologiyasi”., - Toshkent 2015
9. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
10. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
11. Джураев, Д. М. (2017, January). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
12. Odil ogli, T. I. (2021, October). Qadimgi Xitoy Madaniyatining Shakllanishi. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 137-139).
13. Tojiboev, I. O. U. (2021). CHINESE ARCHITECTURE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 40-42.
14. Odil o‘g‘li, T. I. The history of the origin of the Chinese language and the work done to date.
15. oglu Tojiboyev, I. O. (2021). On the use of modern pedagogical technologies and general grammar in the teaching of English. Science and Education, 2(8), 718-720.
16. Odil o‘g‘li, T. I. (2021). METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH. World Bulletin of Social Sciences, 1(1), 23-25.
17. Odil o‘g‘li, T. I. (2020). Flactors in speech development in English and other languages. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 1(3), 144-146.

18. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.
19. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. *Society and Innovation*, 2(2), 111-117.
20. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.
21. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In *Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand*.
22. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.
23. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In *Mat. International scientific and creative forum "Youth in science and culture of the XXI century"*. Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
24. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. *Вестник Челябинского государственного университета*, (2 (256)), 122-125.
25. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. *Общество и инновации*, 2(2), 111-117.
26. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In *Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.* (pp. 229-231).
27. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (3 (80)), 5-10.
28. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (1 (78)), 11-18.
29. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In *Язык и культура* (pp. 226-231).

30. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
31. Tuhtasinov, Ilhom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
32. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).
33. Сукиасян, Г. А., Тухтасинов, И. М., Гушул, Ю. В., & Баштанар, И. М. (2019). Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века: материалы междунар. науч.-творч. форума (научной конференции), 7–8 нояб. 2019 г./сост.: СБ Синецкий (отв. сост.).
34. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
35. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданият мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
36. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.
37. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг таъқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
38. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.